

Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Vakant lavozimlari” interaktiv xizmatining reglamenti

1. Xizmat ta’rifi

1.1. Xizmatning nomlanishi

Qisqa nomi: “Institut vakant lavozimlari”.
Kengaytirilgan nomi: Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti orqali xizmat ko’rsatilayotgan “Institut vakant lavozimlari” interaktiv xizmati.

1.2. Xizmat natijasi

Foydalanuvchi institut quyidagilar haqida ma’lumotlar oladi:
1. Institut vakantlari bo’yicha ma’lumotlar (bo’lim, lavozim, ish o’rniga quyilgan talablar);
2. Talabgorga qo’yilgan talablar.

1.3. Xizmat ko’rsatuvchi organlar

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat” kodeksi.

1.5. Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar

Jismoniy shaxslar va institut rahbariyati.

1.6. Bajarilish muddati

Institut xodimlar bo’limi mas’ul xodimi tomonidan vakant lavozimlar bo’yicha ma’lumot ATM mas’ul xodimiga taqdim etgandan so’ng, 1 ish kun davomida ma’lumotlarni interaktiv xizmatlar bazasiga joylashtiriladi.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday fuqaroga quyidagi axborot taqdim etiladi:

1. Bo’lim, lavozim, ish o’rniga qo’yilgan talablar.
2. Talabgorga qo’yilgan talablar.
3. Tanlovni amal qilish muddati.

2.2. Batafsil ma’lumot olish

“Institut vakant lavozimlari” to’g’risida ma’lumot:
Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti (www.tkti.uz) ning interaktiv xizmatlar bo’limiga joylashtiriladi.

2.3. So’rovnoma bo’yicha ma’lumot olish

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog’i orqali kecha-yu kunduz ma’lumot olish mumkin.

Elektron pochta orqali: dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha.

2.4. Xizmat ko'rsatish manzili hakida ma'lumot olish

Toshkent shahar Shayxontohur tumani A.Navoiy ko'chasi 32 uy

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog'i orqali kecha-yu kunduz foydalanish mumkin.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur bo'lgan xujjatlar

Interaktiv xizmatdan foydalanganda foydalanuvchi tomonidan qo'shimcha hujjat talab etilmaydi.

4.2. Xizmat to'lovi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmat ko'rsatish bosqichlari

Interaktiv xizmat institut rektori va xodimlar bo'limi tomonidan tashkillashtiriladi. Institut xodimlar hisobini yuritish dasturi orqali dasiurning shtatlar jadvali va xodimlarning institutdagi ishlari to'g'risida ma'lumotlar asosida mavjud vakant lavozimlar aniqlanadi va ular haqidagi ma'lumotlar rektor tomonidan tasdiqlangandan so'ng interaktivlar ma'lumotlar bazasiga joylashtiriladi. Interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasi texnik ta'minotini yuritish ATM xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

4.4. Davlat xizmatini ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni

Bu interaktiv xizmat so'rov-javob usulila tashkil etiladi.

4.5. Rad etish sabablari

Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda interaktiv xizmat ko'rsatish dasturi o'rnatilgan serverda profilaktik ishlar o'tkazilayotgan bo'lishi mumkin